



2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida jami **23 251,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,9** % ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 9,7 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 9,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 487 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 109,8 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 64,2 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 84,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 19,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 114,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 16,5 %) Bu qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.





Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.10.2021- yil	01.10.2022- yil	
Toshkent shahar	8 966	9 453	487
tumanlar:			
Bektemir	188	221	33
Mirzo Ulug'bek	1143	1198	55
Mirobod	820	867	47
Olmazor	758	775	17
Sirg'ali	483	512	29
Uchtepa	653	671	18
Chilonzor	1136	1198	62
Shayxontoxur	719	742	23
Yunusobod	1150	1153	3
Yakkasaroy	912	958	46
Yangi xayot	195	252	57
Yashnobod	809	906	97



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.10.2022- yil holatiga



Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Chilonzor (12,7 %), Mirzo Ulug'bek (12,7 %) va Yunusobod (12,2 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 7 949,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 99,4 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 34,2 % ni tashkil qildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da




● 2021- yil
yanvar- sentabr

● 2022- yil
yanvar- sentabr

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,8** %), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,6** %i), Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **42,6** %i) Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **40,2** %i), ga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- 2022- yil yanvar-sentabr oylari
 - 2021- yil yanvar-sentabr oylari


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-sentabrda 2021-yilning yanvar-sentabrga nisbatan kamayish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **53,5 %** i bajarilib, 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,7 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,0 %** ni tashkil etgan holda **12 431,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **12,4 %** ni tashkil etib, **2 870,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **135,1 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **526,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **70,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **22 724,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **106,1 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,7 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-sentabr

64,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **64,2 %** yoki **14 936,4** mlrd. so'mni tashkil etgan.

34,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **7 949,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **34,2 %** ni tashkil etdi.

53,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **12 431,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,5 %** ni tashkil etdi.

12,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **2 870,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **12,3 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Toshkent shahar	23 251,3	104,9	14 093,9
tumanlar:			
Uchtepa	1 545,1	73,9	776,1
Bektemir	740,5	121,6	459,4
Yunusobod	4 022,8	106,2	2 681,2
Mirzo Ulug'bek	2 189,8	82,0	1 405,3
Mirobod	3 194,0	136,0	1 594,5
Shayxontoxur	1 916,2	126,8	1 182,8
Olmazor	1 615,4	100,2	879,6
Sergeli	1 031,5	101,3	559,1
Yakkasaroy	1 855,4	100,1	1 111,8
Yashnabod	1 968,0	118,7	1 213,7
Yangihayot	879,6	121,1	605,2
Chilonzor	2 293,2	100,7	1 624,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2021- yil yanvar-sentabr

8,7



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

21,3



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

70,0



Bino va inshootlarni qurilishi

2022- yil yanvar-sentabr

16,5



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

19,3



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

64,2



Bino va inshootlarni qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **30,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **109,6 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-sentabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **103,0 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **50,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **130,0 %**ni tashkil qildi, ulushi esa **19,3 %**ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar-sentabr

■ 2022- yil yanvar-sentabr




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,6 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **69,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,4 %** ni va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **103,0 %** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **34,9 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **146,0 %** ni tashkil etdi. **65,1 %** ulush kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **103,0 %** ni tashkil etdi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod t.

4 022,8

1

2

Mirobod t.

3 194,0

3

CHilonzor t.

2 293,2



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Bektemir t.

740,5

1

2

Yangihayot t.

879,6

3

Sergeli

1 031,5





**Toshkent shahar
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)